

"TBC SUG'URTA" AJ  
Yagona aksiyadori tomonidan  
2026-yil 6 yanvardagi qarori bilan  
TASDIQLANGAN



**"TBC SUG'URTA"**  
**AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**USTAVI**  
**(Yangi tahrirda)**

**Toshkent– 2026**

## MUQADDIMA

"TBC SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda "Jamiyat" yoki "AJ" deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan.

Jamiyatning yagona aksiyadori:

"TBC BANK" aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinlarda - "TBC" yoki "Yagona aksiyador") O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro'yxatdan o'tgan va 2022-yil 17-martdagi 86-sonli bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

Ushbu Ustavda qo'llaniladigan atamalar va ta'riflar quyidagilarni anglatadi:

- "Ustav" Jamiyatning asosiy ta'sis hujjati bo'lgan ushbu ustavni anglatadi;
- "Ustav fondi" Jamiyat ustav fondining qiymatini bildiradi;
- "Ijro etuvchi organ" yoki "Bosh direktor" Jamiyatning ijro etuvchi organi hisoblangan Jamiyat bosh direktorini anglatadi;
- "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi" Jamiyatning oliy boshqaruv organini bildiradi;
- "Ichki audit xizmati" Jamiyatning Ichki audit xizmatini anglatadi;
- "AJ Qonuni" O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunini bildiradi;
- "Qonunchilik," "amaldagi qonunchilik," "qonun hujjatlari" yoki "qonun" O'zbekiston Respublikasining har qanday boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarini, jumladan Qonunlar, Farmonlar, Qarorlar va boshqalarni anglatadi;
- "Zaxira fondi" Jamiyatning zaxira fondini bildiradi;
- "Davlat organi" O'zbekiston Respublikasining har qanday hukumat, ma'muriy, nazorat, me'yoriy, sud, belgilovchi, intizomiy, huquqni muhofaza qiluvchi yoki soliq organlari, agentliklari, idoralari, filiallari, bo'limlari, institutlari va bo'linmalarini, shu jumladan barcha respublika, markaziy, mintaqaviy, mahalliy va munitsipal organlar, sudlar va tribunallarni anglatadi, xususan: (a) qonun chiqaruvchi (O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ham), ijro etuvchi (Hukumat ham) va sud hokimiyati organlari hamda bo'limlari; (b) saylov organlari; (v) tartibga soluvchi organlar; (d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq har qanday davlat vakolatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan tashkilotlar;
- "Kuzatuv kengashi" Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi kuzatuv organini anglatadi, ushbu Ustav va "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bilan Yagona aksiyador vakolatiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno;
- "Uchinchil tomon" Jamiyatning aksiyadori bo'lmagan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsni bildiradi;
- "So'm" O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi so'mni anglatadi;
- "AQSH dollari" Amerika Qo'shma Shtatlarining milliy valyutasi bo'lgan AQSH dollarini bildiradi.

Ushbu Ustavda, agar mazmun boshqacha ifodalanmagan bo'lsa:

- "Ustav" so'zi ushbu Ustavga uning o'zgartirilishi, yangilanishi yoki to'ldirilishi munosabati bilan yoxud uni vaqti-vaqti bilan o'zgartirish, yangilash yoki to'ldirish imkoniyati nuqtai nazaridan havola sifatida tushunilishi lozim;
- "kun" yoki "kunlar" deganda kalendar kunlar nazarda tutiladi;
- "o'z ichiga oluvchi" yoki "qamrab oluvchi" hech qanday cheklovlarsiz o'z ichiga oluvchi yoki qamrab oluvchi ma'nosini anglatadi;
- "Shaxs"ga havola vaziyat va olmoshga qarab xuddi shunday keng ma'noga ega bo'lishi kerak, jumladan jismoniy shaxs, korporatsiya, kompaniya, shirkat, firma, ishonchli boshqaruvchi, trast, ijrochi, ma'muriy boshqaruvchi yoki boshqa qonuniy shaxsiy vakil, notijorat uyushma, qo'shma korxona, sindikat yoki boshqa tijorat muassasasi, har qanday hukumat, ma'muriy yoki tartibga soluvchi organ yoki agentlikni (garchi ushbu shaxs ba'zan mazkur hujjatda bunday so'zlarning



ayrimlari bilan birga ishlatilishi mumkin bo'lsa ham) va ularning tegishli vorislarini, qonuniy shaxsiy vakillarini hamda ruxsat etilgan vorislarini o'z ichiga oladi;

- "Yozma shakl" yoki shunga o'xshash atamalarga har qanday havola, shuningdek, qabul qiluvchi tomonidan olinishi mumkin bo'lgan elektron xabarlar va elektron muloqotning boshqa shakllariga, jumladan faksimil xabarlarga, shuningdek, elektron pochta yoki boshqa mavjud yoki kelajakdagi aloqa vositalari orqali yuborilgan xabarlarga havolalarni o'z ichiga oladi;
- Agar matndan boshqacha ma'no anglashilmasa, birlikda qo'llangan so'zlar ko'plikni ham o'z ichiga oladi va aksincha.

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Jamiyatning rasmiy nomi:

To'liq:

O'zbek tilida: «TBC SUG'URTA» aksiyadorlik jamiyati;

Ingliz tilida: «TBC SUG'URTA» joint stock company;

Rus tilida: Aksionernoye obshchestvo «TBC SUG'URTA».

Qisqartirilgan:

O'zbek tilida: «TBC SUG'URTA» AJ;

Ingliz tilida: «TBC SUG'URTA» JSC;

Rus tilida: AO «TBC SUG'URTA».

1.2. Jamiyatning joylashgan manzili va pochta manzili: 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy;

1.3. Jamiyat faoliyatining muddati cheklanmagan.

## **II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI, HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

2.1. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

2.2. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin..

2.3. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

2.4. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

2.5. Jamiyat filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish huquqiga ega.

2.6. Jamiyat boshqa korxona va tashkilotlarni tashkil etishda o'zining pul mablag'lari va pulsiz mablag'lari bilan, shu jumladan badal to'lash asosida ishtirok etish huquqiga ega.

2.7. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.



2.8. Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishga haqli. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

2.9. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

2.10. Jamiyat u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo'lishi lozim. Jamiyat o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ deb yuritiladi) yozma bildirish yuborish yo'li bilan, aksiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart.

2.11. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

2.12. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

### III. JAMIYATNING FAOLIYAT DOIRASI VA MAQSADLARI

- 3.1. Jamiyatning asosiy maqsadi foyda olishdir.
- 3.2. Sug'urta bozorining professional ishtirokchisi sifatida Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishi hayotni sug'urtalashdir (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urtalash). Bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi va sug'urta shartnomasida (annuitetlarda) ko'rsatilgan oshirilgan foizni o'z ichiga olgan sug'urta summalarining bir martalik yoki davriy to'lovlarini nazarda tutadi.
- 3.3. Jamiyat o'z maqsadlariga erishish uchun sug'urta bozorida quyidagi professional xizmatlarni amalga oshirishga haqli:
  - sug'urta (qayta sug'urta) shartnomalarini tuzish;
  - o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida;
  - investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
  - qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda sug'urtalovchining ushbu faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya olishi talab etilmaydi;
  - sug'urta (qayta sug'urta) sohasidagi mutaxassislarning malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish;
  - sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlari bo'yicha qoidalarni (shartlarni) ishlab chiqish va tasdiqlash;
  - sug'urta hodisasi yuz berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta to'voni (sug'urta to'lovi) miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya va boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;
  - sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlar hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;
  - qonun hujjatlarida va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda sug'urta tovonini (sug'urta to'lovini) to'lashni rad etish, sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;
  - sug'urta (qayta sug'urta) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirish, sug'urta shartnomasining talablari va shartlari sug'urta qildiruvchi tomonidan bajarilishini nazorat qilish;
  - xorijiy sug'urtalovchilarga syurveyerlik va adjasterlik xizmatlarini ko'rsatish;



- sug'urtalovchi ilgari o'z ehtiyojlari uchun sotib olgan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni sotish yoki ijaraga berish;
  - O'zbekiston Respublikasi va xorijiy reyting tashkilotlaridan axborot olish;
  - o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.
- 3.4. Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### **IV. JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI, UNI OSHIRISH YOKI KAMAYTIRISH TARTIBI**

- 4.1. Ustav fondi Yagona aksiyador tomonidan sotib olingan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.
- 4.2. Jamiyatning ustav fondi 25 000 000 000 (Yigirma besh milliard so'm 00 tiyin) so'mni tashkil etadi.
- 4.3. Joylashtirilgan aksiyalarning umumiy soni 25 000 000 (Yigirma besh million) donadan iborat. E'lon qilingan aksiyalarning umumiy soni 20 000 000 (yigirma million) donani tashkil etadi. Bir dona aksiyaning nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'mga teng.
- 4.4. Jamiyatning barcha aksiyalari oddiy aksiyalardir.

##### **Ustav fondini oshirish**

- 4.5. Jamiyatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish orqali ko'paytirilishi mumkin.
- 4.6. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan faqat ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.
- 4.7. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorni Yagona aksiyador qabul qiladi.
- 4.8. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari aniq belgilanishi lozim.
- 4.9. Jamiyat ustav fondining ko'payishi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi.

##### **Ustav fondini qisqartirish**

- 4.10. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini pasaytirish yoki ularning umumiy sonini qisqartirish orqali, shu jumladan Jamiyat tomonidan aksiyalarning bir qismini sotib olib, keyinchalik ularni bekor qilish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.
- 4.11. Ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish orqali kamaytirilishi mumkin.
- 4.12. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qaror Yagona aksiyador tomonidan qabul qilinadi.
- 4.13. Agar ustav fondining kamaytirilishi natijasida uning miqdori ustavga kiritilgan tegishli o'zgartirishlar ro'yxatdan o'tkazilgan kunida belgilangan eng kam miqdordan va qonunchilikda belgilangan miqdordan kam bo'lib qolsa, Jamiyat ustav fondini kamaytirishga haqli emas.
- 4.14. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilayotganda, Yagona aksiyador ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

#### **V. JAMIYATNING AKSIYA TURLARI, NOMINAL QIYMATI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI**

- 5.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy bo'lib, hujjatsiz shaklda hisobga olinadi. Aksiyalarga egalik huquqi depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.
- 5.2. Oddiy aksiyalar ovoz berish huquqiga ega bo'lib, ularning egalariga dividendlar olish va Jamiyat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini beradi.
- 5.3. Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasi - bu ovozga qo'yilgan masalani hal etishda aksiyadorga ovoz berish huquqini ta'minlaydigan oddiy aksiyadir.
- 5.4. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlash taqiqlanadi.



- 5.5. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan korporativ obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish hamda joylashtirish huquqiga ega.

## **VI. JAMIYAT AKSIYALARINI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI**

- 6.1. Jamiyat o'zi chiqaradigan aksiyalarga xususiy joylashtirish orqali yopiq obuna o'tkazish huquqiga ega.
- 6.2. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmasligi lozim.
- 6.3. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda to'lov, ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilangan narxdan past bo'lmagan narxda amalga oshiriladi.
- 6.4. Jamiyatning ustav fondi ko'paytirilganda, Jamiyatning qo'shimcha aksiyalari uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

## **VII. OBIJEKTB A JAMIYATNING YAGONA AKTSIYADORINING HUQUQLARI**

- 7.1. Jamiyatning yagona aksiyadori quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli jamiyat aksiyadorlari reyestriga kiritilish;
- o'ziga tegishli depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;
- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar ko'rinishida olish;
- jamiyat tugatilgan taqdirda o'ziga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;
- jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;
- olingan dividendni erkin tasarruf etish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;
- o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;
- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;
- jamiyat aksiyadorlari (ishtirokchilari) o'rtasida ularning huquqlarini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda amalga oshirish to'g'risida korporativ shartnoma tuzish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda bilan bog'liq xatarlarni sug'urtalash.

Jamiyatning yagona aksiyadori qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

## **VIII. JAMIYAT DAROMADINI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI**

- 8.1. Dividend Jamiyat sof foydasining Yagona aksiyadorga taqsimlanadigan qismidir.
- 8.2. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.
- 8.3. Yagona aksiyadorning qaroriga ko'ra dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.
- 8.4. Jamiyat moliya yilining birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalari va (yoki) moliya yili natijalari bo'yicha, agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.
- 8.5. Jamiyatning moliya yilining birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalari bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugaganidan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.
- 8.6. Har bir turdagi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliliigi to'g'risida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida Yagona aksiyador



tomonidan qabul qilinadi.

- 8.7. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi Yagona aksiyadorning qarori bilan belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati bunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kechiktirilishi mumkin emas.
- 8.8. Jamiyat quyidagi aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashga va to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas:
- Jamiyatni ta'sis etishda uning butun ustav fondi to'liq to'langunga qadar;
  - agar dividendlarni to'lash paytida to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud bo'lsa yoki ko'rsatib o'tilgan alomatlar dividendlarni to'lash natijasida jamiyatda paydo bo'lsa;
  - agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.
  - Ushbu moddada ko'rsatilgan holatlar tugatilganidan keyin jamiyat aksiyadorlarga hisoblangan dividendlarni to'lashi shart.
- 8.9. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan olinadigan soliqlarni hisobga olmagan holda e'lon qiladi.

## **IX. JAMIYATNING ZAXIRA VA BOSHQA FONDLARINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

- 9.1. Jamiyatda uning ustav fondining o'n besh foizidan kam bo'lmagan va ellik foizidan oshmaydigan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Jamiyatning zaxira fondi daromadlarning 20 foizigacha bo'lgan miqdordagi ajratmalar hisobiga shakllantiriladi va bu ajratmalar Yagona aksiyadorning qarori bilan belgilangan miqdorga yetguniga qadar chegirib tashlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi.
- 9.2. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash, jamiyatning korporativ obligatsiyalarini so'ndirish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda jamiyatning aksiyalarini sotib olish uchun mo'ljallangan.
- 9.3. Jamiyatning zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

## **X. BOSHQARISH TUZILMASI**

- 10.1. Jamiyatning boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:
- Yagona aksiyador;
  - Kuzatuv kengashi;
  - Ijro etuvchi organ (Bosh direktor)

## **XI. YAGONA AKSIYADOR**

- 11.1. Yagona aksiyador Jamiyatning oliy boshqaruv organi hisoblanadi.
- 11.2. Yagona aksiyador har yili yillik qaror qabul qilishi shart.

Yagona aksiyadorning yillik qarori moliyaviy yil tugaganidan so'ng olti oydan kechiktirmay qabul qilinishi lozim.

- 11.3. Yagona aksiyadorning yillik qaroridan tashqari qabul qilinadigan qarorlar navbatdan tashqari hisoblanadi.
- 11.4. Yagona aksiyadorning vakolatlari:
- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
  - Jamiyatni qayta tashkil etish;
  - Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
  - Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, uning aniq muddatlarini belgilagan holda Jamiyatning yillik hisoboti va yillik biznes-rejasini, shuningdek, Jamiyatni o'rta muddatli va uzoq muddatli davrga rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash;
  - kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;
  - e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
  - Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish;
  - Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;
  - o'z aksiyalarini sotib olish;



- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
  - jamiyatning foyda va zararlarini taqsimlash;
  - kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitis;
  - jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - aksiyalarni maydalash va birlashtirish;
  - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
  - majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini aniqlash va u bilan shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
  - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.
- 11.5. Yagona aksiyador vakolatiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Ijro etuvchi organiga hal qilish uchun o'tkazilishi mumkin emas.

## XII. KUZATUV KENGASHI

12.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ushbu ustavda va qonun hujjatlarida Yagona aksiyadorning vakolatiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

12.2. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda tinglagan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilash tartibini tashkil etish;

Bosh direktorni saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

Jamiyat Bosh direktoriga to'lanadigan mukofotlar va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini tinglash;

jamiyat kuzatuv kengashiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun jamiyat ijroiya organining faoliyatiga doir har qanday hujjatlardan foydalanish va ularni ijroiya organidan olish. Olingan hujjatlardan jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini, uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng yuqori miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi bo'yicha tavsiyalar berish;

Jamiyatning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlarda ishtirok etishi bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyat tomonidan aksiyalarga ayirboshlanmaydigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.



- 12.3. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatiga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.
- 12.4. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijro etuvchi organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.
- 12.5. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari Yagona aksiyador tomonidan ushbu ustavda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda uch yil muddatga saylanadi.
- 12.6. Jamiyatning kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan miqdorda qayta saylanishi mumkin.
- 12.7. Jamiyatning bosh direktori, uning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar hamda mazkur jamiyatlarning boshqaruv organlari a'zolari jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.
- 12.8. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas.
- 12.9. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan uning tarkibidan kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi. Jamiyatning kuzatuv kengashi o'z raisini kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqli.
- 12.10. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashining majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnomalar yuritilishini tashkil etadi.
- 12.11. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashi a'zolaridan biri bajaradi.
- 12.12. Kuzatuv kengashi majlislari quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:
  - Kuzatuv kengashining navbatdagi majlisi;
  - Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlisi.
- 12.13. Kuzatuv kengashining navbatdagi majlisi yil davomida har chorakda kamida bir marta 12.2-bandda ko'rsatilgan masalalarni ko'rib chiqish va zarur hollarda hal etish, shuningdek kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish maqsadida chaqirilishi shart.
- 12.14. Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari navbatdagi bo'lmagan boshqa majlislar hisoblanadi.
- 12.15. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusi bilan yoki kuzatuv kengashi a'zosining talabiga binoan chaqiriladi.
- 12.16. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum uning a'zolari umumiy sonining 100 foizini tashkil etishi lozim.
- 12.17. Agar Kuzatuv kengashi a'zolarining soni uch kishidan kam bo'lib qolsa, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash masalasini Yagona aksiyador ko'rib chiqishi uchun kiritishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari ushbu masalani Yagona aksiyador ko'rib chiqishi uchun kiritish to'g'risida, shuningdek Bosh direktor vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash haqida qaror qabul qilishga haqli.
- 12.18. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida qarorlar, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda, kuzatuv kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega.
- 12.19. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish (so'rov yo'li bilan) orqali kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.
- 12.20. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni ijro etish uchun jamiyat Bosh direktoriga topshiriladi.

### **XIII. JAMIYATNING BOSH DIREKTORI**

- 13.1. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish Jamiyatning Bosh direktori tomonidan amalga oshiriladi.
- 13.2. Jamiyat Bosh direktorining vakolatiga Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilishning barcha masalalari kiradi, faqat Jamiyatning Yagona aksiyadori yoki Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.
- 13.3. Jamiyat Bosh direktori Jamiyatning Yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etadi.



- 13.4. Jamiyatning Bosh direktori ishonchnoma talab qilinmagan holda jamiyat nomidan ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, jamiyat nomidan bitimlar tuzadi, jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlaydi, shtat jadvalini tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari bajarishi shart bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.
- 13.5. Jamiyat Bosh direktorining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari, jamiyat ustavi va jamiyat bilan uch yil muddatga tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi. Ushbu shartnomani har yili uzaytirish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Jamiyat nomidan shartnomani jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yoki jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs imzolaydi.

#### XIV. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARI VA BOSH DIREKTORNING MAS'ULIYATI

- 14.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari va Bosh direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish yuritishlari hamda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari shart.
- 14.2. Agar ushbu modda qoidalariga ko'ra bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar hisoblanadi.
- 14.3. Ovoz berishda ishtirok etmagan yoki jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari va/yoki Bosh direktor, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno, javobgarlikka tortilmaydi.
- 14.4. Jamiyat yoki Yagona aksiyador jamiyatga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida Kuzatuv kengashi a'zosiga yoki Bosh direktorga nisbatan sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqli.
- 14.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi yoki Bosh direktori quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:
- chalg'ituvchi yoki ataylab noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
  - "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan axborotni taqdim etish tartibini buzish;
  - o'zlari yoki ularning affillangan shaxslari foyda (daromad) olishlari maqsadida yirik bitimlar va (yoki) manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni, shuningdek affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishni taklif etish va (yoki) bunday bitimlarni tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilish, natijada jamiyatga zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa.
- 14.6. Agar jamiyatning Bosh direktori tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilishi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Bosh direktorning aybi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda isbotlansa, u jamiyatning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda kreditorlar oldidagi qarzni to'lash bo'yicha majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

#### XV. YAKUNIY QOIDALAR

- 15.1. Ushbu Ustav belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
- 15.2. Ushbu Ustavda aks ettirilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tartibga solinadi.

**Jamiyatning yagona aksiyadori**

**"TBC Bank" ATB**

**Boshqaruv raisi v.v.b.**



**Tulyaganova S.**